

MUAMMOLI TA'LIMNING BIOLOGIYA DARSLARIDAGI AHAMIYATI

Rabbimova Farida To'qsanboyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti

Zokirova Shaxnoza Isoqovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilim darajasini orttirish uchun o'quvchilarga mantiqiy fikrlashini oshiruvchi, muammoli savol va topshirqlar zarur buning uchun o'qituvchi dars mashg'ulotlarida muammoli ta'lif texnologiyasini qo'llashi muhum ahamiyatga ega ushbu maqolada muammoli ta'lif texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va biologiya darslarida ushbu texnologiyadan foydalanishning qanchalik muhim ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli o'qitish, muammoli vaziyat, muammo mazmuni, muammo yechimi, mantiqiy fikrlash, bilim, malaka, tajriba, muammoli bayon etish, qisman izlanish faoliyati, mustaqil tadqiqot faoliyati, solishtirish, umumlashtirish, dalillarni aniqlash, isbotlash, tekshirish, nostandard masalalar.

Bugungi kunda dunyoda fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ta'linda nazariya bilan amaliyot birligi hamda ta'lifni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi talablari talabaning mustaqil faol va ongli mehnatiga asoslangan, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan, tafakkurini rivojlanira-digan, vaqtini tejaydigan, bilim o'rganishini qulaylashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tadbiq etishni taqozo etadi.

Muammoli ta'lif - bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va talabalarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lif va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llashi qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lif ko'proq talaba fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiyyatini rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi.

Muammoli ta'lif texnologiyasi g'oyasi yangi emas. O'tmishning eng buyuk o'qituvchilar hamisha o'quv jarayonini qiziqarli bilish, o'quvchilarning aqliy kuchi va qobiliyatini rivojlanirish jarayoniga aylantirish yo'llarini izlab kelishgan (J.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalozzi, F.A.Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshq).

Ta'lifiy maqsadga to'liq erishish uchun jarayonni to'g'ri tashkil etish, talabalarda o'rganishga nisbatan motivatsiya hosil qilish, ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish lozim bo'ladi. Ta'lif tizimida yuqoridaqgi vazifalarni amalga oshirishda eng maqbul ta'lif texnologiyalardan biri bu-muammoli-modulli ta'lif texnologiyasıdir. Rus olimi M.Choshanov ushbu texnologiya haqida quyidagilarni bayon qiladi- "Muammoli-modul texnologiyasi orqali o'qitishda asosiy e'tiborni biz talabalarning tanqidiy fikrlash orqali masalalarni hal qilishga o'rgatilishiga qaratishimiz lozim bo'ladi".

Yana bir taniqli rus pedagog olimi A. Matyushkin fikriga ko'ra "muammoli ta'lif texnologiyasi ta'lif oluvchilarning fikrlash qobiliyatini yanada rivojlaniradi". Muammoli ta'lif deganda o'kuv materialini o'quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rganish tushuniladi. O'quvchi (talaba)ning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular talaba (o'quvchi)ni ob'ektiv ravishda izlanishga va mantikdn to'g'ri ilmiy hulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi.

Biz pedogologlar talabalarda bilim berishda ularda berilayotgan materiallarni ko'r-ko'rona yodlab olish emas balki tafakkur va anglab yetishlarini ta'minlalishimiz, ularning ijodiy qobiliyatini shakllantirishimiz lozim bo'ladi. Bunday qarashlarni qancha-qancha allomalar

o‘zlarining asarlarida keltirib o‘tganlar. Jumladan, Sharqning buyuk allomalaridan biri bo‘lgan Muhammad Muso al-Xorazmiy shunday firlarni bayon etib ketgan:

- o‘qitishda mustaqillik (ijodiy faollik);
- kuzatilgan voqeа va hodisalarни tushintirishda muntazamlik, ketma-ketlik;
- tajriba;
- o‘qitishning har bir vaziyatlari, savol-javob shakli bilish jarayonini rivojlantiriladi[4].

O‘tgan asrning 60-yillarida muammoli ta’lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner kabi tadqiqotchilarining qarashlari negizida yanada rivojlangan.

S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta’limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli ta’lim texnologiyasining eng asosiy yutuq tomoni va ahamiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchi o‘zida tanqidiy fikr yuritish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qiladi.

Muammoli o‘qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi.

Xorijiy pedagogikada muammoli ta’lim konsepsiyasi J.Dyui g‘oyalari ta’sirida rivojlangan. "Biz qanday fikrdamiz" (1909) asarida amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog an'anaviy dogmatik ta’limotni rad etadi va uni o‘quvchilarining muammolarni hal qilishdagi faol, mustaqil, amaliy faoliyatiga qarshi qo'yadi. Fikrlash, deydi J.Dyui, muammolarning yechimidir.

Ushbu kitobning ikkinchi nashrida (1933) J.Dyui talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatining psixologik mexanizmlarini asoslaydi. Uning ta’kidlashicha, o‘quvchilarining muammolarni yechish qobiliyati ularning tabiiy intellektiga asoslanadi. "Kollektiv fikrlashni hamma ham o‘zlashtira olmaydi, - deb yozadi. Dj.Dyun o‘qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi:

-ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy.

Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so‘z, san’at asarlari, texnik qurilmalar, o‘yinlar va mehnat.

O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o‘quvchilar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullari, o‘zi yo‘lga boshlaydi.

Shuni qat’iyatlik bilan ta’kidlash lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma’lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagisi – bilimlardan muammoga qarab – o‘quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko‘nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o‘zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. O‘zlashtirilgan bilimlar shablonlarini takrorlash bilan bog‘liq bo‘lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so‘ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a’lo darajada namoyon bo‘ladi va rivojlanadi.

Muammoli o‘qitish, o‘qitishning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub’ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o‘ziga xos qiziqish uyg‘otishdir.

Muammoli o‘qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma’lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi.

O‘quvchi noma’lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi, sub’ekt-ob’ekt-sub’ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi insonni fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarining ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- O‘qituvchi muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi;
- O‘qituvchi muammoni qo‘yadi va uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda topadi;
- O‘quvchilarning o‘zлari muammoni qo‘yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar:

- Muammoni turli nuqtai nazardan o‘rganish, tahsil qilish;
- Solishtirish, umumlashtirish;
- Dalillarni aniqlash va qo‘llash;
- Vaziyatga bog’liq xulosalar chiqarish;
- O‘quvchilarning o‘zлari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

Muammoli ta’lim bosqichlari:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to‘g’riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog’liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoni hal etish bosqichlari:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to‘g’ri deb tan olingan sabablar bilan bog’liqlarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo‘lishi to‘g’riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to‘g’riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi.

Biologiyani o‘qitishda 0‘quvchilaming bilish faoliyatini faollashtirish, ularda ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi o‘qitishda muammoli vaziyatlami vujudga keltirishga asoslanib, uni maqsadga muvofiq holda, darsning turli bosqichlari, jumladan, uy vazifasini so‘rash, yangi mavzuni o‘rganish, o‘rganilgan mavzuni umumlashtirish va yakunlashda foydalanish tavsiya etiladi.

Biologiya o‘qituvchisi muammoli vaziyatlami darsning qaysi bosqichida vujudga keltirishni, muammoli savollarini berish yo‘llarini avvaldan belgilab olgan bo‘lishi lozim.

Biologiya o‘qituvchisi muammoli vaziyatlami vujudga keltirish maqsadida o‘rganiladigan mavzu matnini tahlil etishi, o‘quvchilarning yosh, psixologik va ergonomik xususiyatlami e’tiborga olgan muammoli savollar zanjirini tuzishi zarur.

Shuni qayd etish kerakki, o‘qituvchi biologiyani o‘qitishda muammoli vaziyatlami vujudga keltirishning quyidagi bosqichlarini nazarda tutishi lozim:

- o‘quvchilaming aqliy faoliyatini faollashtirish, ulaming faoliyatini o‘quv topshiriqlarini hal etishga yo‘llash orqali yangi bilimlarni egallahsga zamin tayyorlash;
- ijodiy o‘quv topshiriqlarini egallah orqali bilimlami kengaytirish, aniqlashtirish va chuqurlashtirish;

— ijodiy o‘quv topshiriqlarini hal ettirish orqali o‘quvchilarning aqliy faoliyat usullarini egallashga imkon yaratish;

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuga doir muammolarni to’liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo’llashda asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog’liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Muammoli ta’limning asosiy g’oyasi bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo’yicha o‘quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o’zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Tolipova J.O. O‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish yo‘llari/7 Pedagogik tahlim. - Toshkent, 2003. - № 3. 24-27b. ;
- 2.3.К.Исмоилов., Р.С.Мусаев., А.А.Шоюсупова. Ўқитишининг замонавий технологиялари. Тошкент 2008.
- 3.Mavlonov O., Tolipova J. Zoologiyani o’qitish metodikasi. - Toshkent: 2004y.215
- 4.Раббимова Ф.Т. Бўлажак биология ўқитувчиларини ўқувчиларни табиатни идрок қилишга ўргатишга тайёрлаш. ЎзМУ хабарлари.- №3/2. –Тошкент, 2015. -83-85 б.
- 5.Раббимова Ф.Т. Ўқувчиларнинг билим фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш. Ж. Халқ таълими. -№6.-Тошкент, 2013. -49-50 б.
- 6.Rabbimova F.T. “Biologiya o’qitish metodikasi” O‘quv qo’llanma. Toshkent, 2022. 265 bet.